

## NOYOB ISTEDOD SOHIBI-ALEKSANDR FAYNBERG

**Mashkurova Munira Abdurahmon qizi**

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti*

**Annotasiya:** *Bu masolada rus shoiri va Ozbekiston Xalq shoiri Aleksandr Arkadevich Faynbergning hayoti va ijodiy faoliyati haqida so'z boradi. Uning asarlari haqida ma'lumotlar taqdim qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *shoir, she'r, rus, uzbek, muallif, jurnalistika.*

### KIRISH

Adabiyot fanidan ta'lim olish jarayonida ko'plab o'zbek, rus, xorijiy yozuvchi-shoirlar ijodini o'rganganmiz. Xar bir shoir yoki yozuvchining o'ziga xos ijodiy karashlari mavjud. Bu qarashlar albatta, ularning yozgan asarlari, she'rlarida namoyon bo'ladi. Shunday yorqin ijodkorlardan biri Aleksandr Arkadevich Faynberg O'zbekiston she'riy osmonida mubolag'asiz eng yorqin nur sochgan adiblardan biridir. Uning ijodi juda ko'p kirrali hisoblanadi.

1937-yilda ota-onasi Novosibirskdan Toshkentga ko'chib kelgach, Aleksandr Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shaxrida tug'ilgan. U Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburgda nashr etilgan o'n uchta she'riy to'plam muallifi hisoblanadi. Uning qalamiga mansub yettita ssenariy yozilgan.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jahon urushi davrida u yashayotgan joy urushdan uzoq bo'lsada, Aleksandr bolalar bog'chasidagi ochlik xislarini eslab: ...bizda nonushtaga lavlagi. Ko'chada esa Daryo... Tushdan keyingi choyga ham lavlagi... (Kuz. 1942). Bu davrdagi bolalar uchun bolalik davri qiyin kechgan. Sashaning yonida doimo mehribon va g'amxur onasi Anastasiya Aleksandrovna bo'lgan. Onasi uyda kattagina kutubxonaga ega bulib, ingliz va frantsuz tillarini puxta egallagan, Moskvada ta'lim olgan edi [1:61].

Onasi unga uyda Pushkin, Lermontov, Nekrasov, blok, Mandelshtam, Esenin, Axmatova va Tyutchevning she'rlarini ukib bergan. Uning otasi Arkadiy Lvovich Faynberg ximik-texnolog kasbiga ega bo'lib, urush va urushdan keyingi yillarda zavodda ishlagan. Elliginchi yillardan keyin ilmiy tadqiqot olib borishga qiziqdi. O'rta Osiyo universitetida dotsent vazifasida ishlash bilan bir katorda, ilmiy kotib lavozimida xam faoliyat yuritgan. Aleksandr otasidan mustaqil fikr yuritish, ishga mas'uliyat bilan yondoshishni o'rgangan. Faynberg 27 yoshga to'lganida, onasidan ajraldi. Shundan so'ng ko'pgina she'rlarini onasiga bag'ishlab yozgan.

U onasining nomidan o'gliga so'zlovchi she'rni yozgan: Не надо от тебя мне, мой родной, богатства, дома роскоши ковровой, Достаточно мне, сын любимый мой, чтоб рядом ты ходил живой, здоровый.

Bu she'rning o'zbekcha tarjimasi: Xech narsa kerakmas sendan o'g'lonim, muhtasham saroylar qurma men uchun. Yonimda yursang bas, baxtim qo'rg'oni Bo'lib sog'-salomat quvonmay nechun[3:23].

Onasidan judo bo'lganidan besh yil o'tib, 1971 yilda otasi vafot etadi. Uning bolaligi sobiq Jukovskaya ko'chasidagi uyda o'tgan. Etti yillik maktabni tugatgach, Aleksandr Faynberg Toshkent tipografiya texnikumiga o'qishga kirdi. Texnikumni tamomlagach, Tojikistonda xarbiy xizmatni o'tagan. Keyin Toshkent universiteti (ToshDu, xozirgi UzMU)ni tamomlagan, filologiya fakultetining jurnalistika yo'nalishi kechki bo'limida taxsil olgan. Kechqurun o'qib, kunduzi jurnalistika va nashriyot nozik sir asrorlarini o'rganish maksadida ishlagan.

1965-yilda uning birinchi kitobi "velotreki" (velosiped treklari) nashr etilgan. 1969-yilda uni O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga kabul kilishgan. Shu yili uchinchi kitobi "Mgnovenie" (tezkorlikda) xam nashr etilgan. Uning nomi sekin-sekin mashxurlikka yuz tutgan [1:62].

A.Faynberg shoir xodisasi, davr timsoli, serkirra, teran, ko'p q irrali shoir bo'lib, uning she'rlarini anglash uchun xali kitobxonlar, adabiyotshunoslar va tadkikotchilar izlanish olib borishlari kerak. Aleksandr Arkadevich Faynberg hayotlik davrida uning ishini ilmiy tarzda yondashib, o'rganishlariga qarshi bo'lgan. U xech kimning uni maqtashini yoki undan ham yomoni, uni Sovet she'riyatining "Bronza" klassikasiga mansub sifatida muddatidan oldin yozib kuyishini yoqtirmagan. Shoirni chop etgan kitoblari taqdiri, xali yozilmagan xar bir yangi she'ri, muvaffaqiyatli yozilgan satr ichidan topilgan yangi kofiya, "erkin sonetlar" ning yangi noodatiy she'riy shakli ko'proq tashvishlantirardi.

A.Faynberg "dastlab men buni kildim", degan shoir yoki rassom gapini noto'g'ri deb hisoblagan. Xa, u xech narsa qilmadi, bu yuqoridan Xudo orqali, xuddi qo'shiqchiga ovoz berilgani kabidir, ya'ni unga talant Xudo tomonidan berilgan, u fakat bajaruvchisi deb hisoblagan. Bu "usha shoir yoki rassom emas, balki Xudoning unga bergan in'omi, buning uchun taqdirga minnatdorchilik bildirishimiz kerak" - deb fikr bildirgan. Men kimman? Keyingi katorda nima yozilishini bilmayman. She'r - Xudo bergan kushik". [2:17].

A.Faynberg o'zi hakida bashoratli tarzda "yigitlar, men xali tug'ilmaganlar oldiga boraman...", dedi.

Aleksandr Faynbergning 700 dan ortiq she'rlar, ikkita poemalari nashr etilgan. Shoir Shark madaniyati markazida yashagan, bir vaktning uzida u parallel ravishda rus madaniyatining vakili va tashuvchisi xamdir[2:62].

Shark sun'iy svilizasiyasiz xam ko'plab madaniyatlarning chorraxasi hisoblanadi. Bu borada uning kuyidagi she'rlari bor:"Staraya Pesenka" ("eski kushik"), "Samarkandskiy bazar" ("Samarqand bozori"), "kartinka Samarkandskogo bazara" ("Samarqand bozori surati"), "dva gruzina"("ikki gruzin"); tufilib usgan Toshkent shaxri xakida: v "1943" ("1943-yil"), "Nezabudka" ("unutma meni"), "Svokzala ya...""Vokzaldan men....", "Tramvayniy Park" ("tramvay parki"), "Vzglyad iz detstva"

("bolalikdan bir manzara"), "gorod, kotoriy ti est" ("Sen bulgan shaxar"), "5-iy proezd Jukovskogo" ("Jukovskiyning 5-yulagi"), "gorod miliy" ("Azizim shaxar").

A.Faynberg nafakat she'rlar yozdi, balki tarjima bilan ham shufullandi. U mashhur bobokalonimiz Alisher Navoiy va zamonaviy shoirlardan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Askad Muxtor, Gulchexra Nurullaevaning she'rlarini rus tiliga tarjima qilgan. Uning she'rlarini 2004-yilda Rustam Musurmonov o'zbek tiliga tarjima qilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Malixina G.V. Urok po lirike A.Faynberga. // Prepodavanie yazika i literaturi, nauchno-metodicheskiy jurnal. Tashkent. 2006. №2.
2. Malixina G.V. Poeticheskiy priisk Aleksandra Faynberga. - T., 2014.
3. Faynberg A. Ishk degani bir karashda tuyular oson... She'rlar//Aleksandr Faynberg. - T.: Ijod nashr, 2021.